



TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ILMIY AXBOROTLARI

ILMIY-NAZARIY JURNALI

SCIENTIFIC-THEORETICAL JURNAL

SCIENTIFIC BULLETIN

OF THE TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА



1/2024

MUNDARIJA

Абдуллаева Б. С. ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ СФЕР МОТИВАЦИИ НЕОРГАНИЗОВАННАЯ МОЛОДЕЖЬ	5-12
Nazarov A.M. UYUSHMAGAN YOSHLARNING PSIXOLOGIK QIYOFASI VA SHAXS YO'NALGANLIGI	13-24
Raxmatov U.E. INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BIOLOGIYADAN MASALA VA MASHQLAR YECHISH FANINI O'QITISH METODIKASI	25-34
Mukhtarov M.M. VARIOUS STRATEGIES OF INTRODUCING OF NEW WORDS TO STUDENTS AT HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS	35-50
Muxtarova A.E. TALABALAR REFLEKSIV QOBILIYATLARINI SHAXS SIFATLARI BILAN ALOQADORLIKDA NAMOYON BO'LISHI	51-63
Alimova Z.K. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLANING RIVOJLANISHIDA O'YINNING ROLI VA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINING TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDAGI AHAMIYATI	64-72
Abduraxmonova N.N. BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING O'QUVCHILARNI INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISHGA METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI	73-86
Ashurov R.R. UYUSHMAGAN YOSHLARDA KASBIY FAOLIYAT MOTIVASIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.	87-92
Davletova D.B. MAHALLALARDA AYOLLAR SALOMATLIGINI MUSTAHKAMLASHDA AEROBIKA MASHG'ULOTLARINING O'RNI	93-99
Ishanov A. A. ZOOLOGIYA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL TA'LIM TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING METODIK XUSUSIYATLARI	100-109
Мухтаров А. ИДЕЯ МУЛЬТИКУЛЬТУРАЛИЗМА В ТВОРЧЕСТВЕ НИЗАМИ ГЯНДЖАВИ НА УРОВНЕ ВОСПРИЯТИЯ МЫСЛИТЕЛЕЙ ВОСТОКА И ЗАПАДА	110-121
Umurzoqova M.E. BADIY MATNDA LISONIY SHAXS LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARINING AKS ETISHI	122-135
Ahmedova V. O'ZBEK VA JAHON DRAMATURGIYASIDAGI NAZARIY MASALALARNING QIYOSIY TADQIQI	136-151
G'aniyev N.O. QIZILTEPA TUMANI BA'ZI JOY NOMLARINING TADQIQIY TAVSIFI	152-159
Safarov X.B. JADID HIKOYALARIDA QO'LLANILGAN MOTIVLAR	160-166
Islomov J.S. DRAMATIK ASARDA KULGI VA UNING IFODALANISH	167-178
Avazov V.T. "ISYON VA ITOAT" ROMANIDA XRONOTOP	179-186

2. Gəncəvi N. “İsgəndərnamə” poeması. Bakı, “Adiloğlu” nəşriyyatı.2011.
 3. Gəncəvi N. Bibliografiya. 870. M.F.Axundov adına Azərbaycan Milli kitabxanası. Bakı, 2012.
 4. Həbibbəyli İ. “Böyük Azərbaycan şairi Nizami Gəncəvi”. “Şərq qapısı” qəzeti, Naxçıvan.06.03.2018.
 5. Muxtarov Ə. “Nizami Gəncəvi obrazı bədii ədəbiyyatda”. “Elm nəşriyyatı”, Gəncə 2021.
 6. Rəsulzadə M.Ə. “Azərbaycan şairi Nizami” monoqrafiya.Bakı, “Azərnəşr” 1991.
 7. Yusifli X. “Nizaminin lirikası”. “Elm və təhsil”. Bakı. 2022.
- <https://president.az/articles/3896/print.23.12.2011>.
- https://az.wikipedia.org/wiki/Nizami_G%C9%99nc%C9%99vi_Beyn%C9%99lxalq_M%C9%99rk%C9%99zi <https://apa.az/az/xeber/medeniyyet-siyaseti/-257975> “

BADIIY MATNDA LISONIY SHAXS LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARINING AKS ETISHI

Umurzoqova M. E.,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

E-pochta: umurzakovamarkhabo@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada badiiy matnda lisoniy shaxs lingvomadaniy xususiyatlarining aks etishi masalasiga e’tibor qaratilgan. Lingvokulturologiyada

lisoniy shaxs tiplari tasnifi, uning belgilari haqidagi qarashlar tahlil qilingan. Badiiy adabiyotda lisoniy shaxs umumlashma obrazning lisoniy layoqatini aks ettiradi. Lisoniy shaxs kommunikativ tajribaga ega, muayyan milliy madaniyat tashuvchisi sifatida namoyon bo'ladi. Badiiy matnda bu jihatlar muallif dunyoqarashi, tajribasi, so'z qo'llash mahorati bilan uyg'un holda ifodalanadi. Milliy mansublikni berishda yozuvchilar asosan qahramon nutqida ibora, o'xshatishlar, maqollardan foydalanadilar. Asrlar davomida shakllangan an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar qahramon turmush tarzini ifodalash bilan birga uning ma'naviy qiyofasi, madaniyati haqida ham tasavvur beradi. Bu esa tabiiy ravishda uning nutqida o'z aksini topadi. Muayyan bir millatning stereotiplari haqida xalq og'zaki ijodi, milliy adabiyot namunalari asosida tasavvur paydo qilish mumkin. Har bir millatga xoslikni ifodalovchi stereotiplar bo'lib, mahorat bilan yozilgan asarlarni o'qish jarayonida ularni ilg'ab olish mumkin. Yozuvchi asarda lisoniy shaxsni voqelantirishda uning madaniyat, an'analar, asrlar davomida shakllangan qadriyatlarga qay darajada amal qilganini ham e'tibordan chetda qoldirmaydi. Lisoniy shaxsning lingvomadaniy xususiyatlari o'zlari mansub bo'lgan madaniyatning tilga bevosita ta'siri nuqtayi nazaridan aniqlanadi. Bunda lisoniy shaxs mansub bo'lgan madaniyatning ta'siri u qo'llagan til birliklarida ko'zga tashlanishi shart bo'ladi. Madaniyatlilik darajasi, lisoniy salohiyati yuqori bo'lgan shaxslar millatdoshlariga ham ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'ladilar. O'zbeklarga xos mehmondo'stlik stereotipining badiiy adabiyotda aks etishi hikoyalar misolida tadqiq qilingan. Xususan, ona, do'st lisoniy shaxsida lingvokulturologik xususiyatlarning aks etishi yoritilgan. Bu xususiyatlarning yuzaga chiqishida asos bo'lgan birliklar aniqlangan.

Kalit so'zlar: lisoniy shaxs, stereotip, lingvokulturologik tip, elita lisoniy shaxsi, milliy-madaniy birliklar

ОТРАЖЕНИЕ ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ ЯЗЫКОВОЙ ЛИЧНОСТИ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ

Аннотация: В статье уделено внимание вопросу отражения в художественном тексте лингвокультурных особенностей языковой личности. В лингвокультурологии проанализирована классификация языковых типов личности и взгляды на ее аспекты. В художественной литературе языковая личность отражает языковую одаренность обобщенного образа. Языковая личность выступает как носитель определенной национальной культуры, обладающий коммуникативным опытом. В художественном тексте эти аспекты выражаются в гармонии с авторским мировоззрением, опытом и умением использовать слово. Придавая национальную окраску и идентичность, писатели в основном используют в речи героя словосочетания, сравнения, пословицы. Сложившиеся веками традиции, ценности, обычаи не только выражают образ жизни героя, но и дают представление о его духовном облике и культуре. И это, естественно, отражается на его речи. О стереотипах той или иной национальности можно сформулировать представление на основе образцов устного народного творчества и национальной литературы. Именно стереотипы олицетворяют идентичность каждой нации, и их можно развить в процессе чтения мастерски написанных произведений. Реализуя языковую личность в произведении, писатель не упускает из виду и то, в какой степени он следовал культуре, традициям, ценностям, сложившимся на протяжении веков. Лингвокультурные особенности языковой личности определяются на язык с точки зрения непосредственного влияния культуры, к которой они принадлежат. При этом влияние культуры, к которой принадлежит языковая личность, непременно будет заметно в используемых ею языковых единицах. Лица с высоким уровнем цивилизованности, языкового потенциала также приобретают способность влиять на своих соотечественников. На примере рассказов было исследовано отражение узбекского стереотипа гостеприимства в художественной литературе. В частности, освещено отражение языковых

особенностей в личности матери и друга, а также определены единицы, лежащие в основе проявления вышеуказанных свойств.

Ключевые слова: языковая личность, стереотип, лингвокультурный тип, элитная языковая личность, национально-культурные единицы

REFLECTION OF LINGUOCULTURAL CHARACTERISTICS OF A LINGUISTIC PERSONALITY IN A LITERARY TEXT

Annotation: The article pays attention to the issue of reflecting the linguocultural features of a linguistic personality in a literary text. In linguoculturology, the classification of linguistic personality types and views on its aspects are analyzed. In fiction, a linguistic personality reflects the linguistic talent of a generalized image. A linguistic personality acts as a carrier of a certain national culture with communicative experience. In a literary text, these aspects are expressed in harmony with the author's worldview, experience and ability to use the word. Giving national coloring and identity, writers mainly use phrases, comparisons, and proverbs in the hero's speech. Traditions, values, and customs that have developed over centuries not only express the hero's lifestyle, but also give an idea of his spiritual appearance and culture. And this, naturally, is reflected in his speech. An idea about the stereotypes of a particular nationality can be formulated on the basis of samples of oral folk art and national literature. It is stereotypes that represent the identity of every nation, and they can be developed through the process of reading masterfully written works. When implementing a linguistic personality in a work, the writer does not lose sight of the extent to which he followed the culture, traditions, and values that have developed over the centuries. Linguistic and cultural characteristics of a linguistic personality are determined by language from the point of view of the direct influence of the culture to which they belong. At the same time, the influence of the culture to which the linguistic personality belongs will certainly be noticeable in the linguistic units used by it. Persons with a high level of civilization and linguistic potential also acquire the ability to influence their compatriots. Using the example of stories, the reflection of the Uzbek

stereotype of hospitality in fiction was explored. In particular, the reflection of linguistic characteristics in the personality of the mother and friend is highlighted, and the units underlying the manifestation of the above properties are identified.

Key words: linguistic personality, stereotype, linguocultural type, elite linguistic personality, national cultural units

KIRISH

Badiiy matn muayyan bir muallifga tegishli bo'lib, unda tilning lingvomadaniy xususiyatlari muallifning dunyoqarashi sifatida namoyon bo'ladi, bu jihatdan u xususiydir. Ammo masalaning ikkinchi jihati ham borki, muallif o'zi mansub bo'lgan millatning tilida yozganligi uchun ham qo'llanilgan birliklar xalq uchun umumiy, birday tegishli. Ijodkor esa shu umumiyliklardan eng saralarini, xarakterlilarini tanlab qo'llaydi. Ona tilisi boshqa til bo'lib, boshqa tilda ijod qilgan ijodkorlarda milliy xoslik aks etmaydi deb bo'lmaydi. Masalan, mashhur qirg'iz yozuvchisi Ch.Aytmatov aksar asarlarini rus tilida yaratgan bo'lsa-da, qirg'iz xalqining obrazini mahorat bilan yarata olgan. Shu o'rinda adabiy obraz va lisoniy shaxs tushunchasini farqlash lozim. Bu ikki tushuncha umumiy jihatlarga ega bo'lsa-da, bir-biriga chambarchas bog'liq tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlarining o'rganish obyekti ekanligi bilan bir-biridan farqlanadi. Lisoniy shaxs tushunchasi tilshunoslikda lingvomadaniy aspektda tadqiq qilingan bo'lsa-da, badiiy matnda lisoniy shaxs voqelanishida milliy madaniy birliklarning qo'llanilishi, milliy mansublik, qadriyatlarning aks etishi kabi jihatlar yetarlicha o'rganilmagan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Lisoniy shaxs masalasi lingvomadaniy aspektda Yevropa, xususan, rus tilshunoslari tomonidan keng tadqiq qilingan. Y.N.Karaulov rus tili va rus millatiga mansub lisoniy shaxs xususiyatlarini tadqiq qilgan [5]. Y.N.Karaulovning mazkur tadqiqoti tilshunoslikda lisoniy shaxs masalasini o'rganishda fundamental ishlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Lisoniy shaxs tushunchasi xulq-atvor, milliy xarakter, milliy mansublik tushunchalari bilan uzviy bog'langan. V.I. Karasik milliy xarakterni xalq

tili orqali (aniqrog'i, lingvistik ong va kommunikativ xulq-atvor orqali) o'rganish turdosh fanlar – etnopsixologiya va etnosotsiologiyada olingan ma'lumotlarni hisobga olinmasdan tadqiq qilib bo'lmashligini qayd etadi" [3:77]. O.S.Sklyarova lisoniy shaxsni lingvokognitiv va lingvokulturologik aspektda tadqiq qilgan bo'lib, asosiy e'tiborni yuksak darajali lisoniy shaxsga, ijodkor shaxsiga qaratgan [7]. Rus tilshunosligida muayyan yozuvchilar ijodi misolida lisoniy shaxslar tadqiqiga bag'ishlangan ishlar ham mavjud bo'lib, bunda yozuvchilarning til imkoniyatlaridan mohirlik bilan foydalana olishlari e'tiborga olingan [1, 2, 7].

Badiiy matnda lisoniy shaxs milliy-madaniy xususiyatlarning aks etishi masalasini yoritishda tavsifiy, tipologik, semantik metodlardan foydalanildi. Kontekstual tahlil yordamida lisoniy shaxsning voqelanishining milliy madaniy xususiyatlari Sh.Xolmirzayev, E.A'zam hikoyalari misolida ochib berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Lisoniy shaxsni tiplarga ajratishda ularning tilga munosabati e'tiborga olinadi. Tildan foydalanishda yuqori, o'rtacha va past kompetensiyaga ega shaxslar ham, yuqori nutqiy madaniyatga ega, so'zning nozik ma'no qirralarini anglab, uni o'z o'rnida qo'llay oladigan shaxslar ham, oddiy so'zlashuv tilining tashuvchisi ham, bir necha tillardan foydalana oladigan shaxslar ham, so'zamol yoki so'zga chechan bo'lmagan til egalari borki, bular lisoniy shaxs sifatida o'zini namoyon qilganda shuncha xilma-xil lisoniy shaxslarning yuzaga kelishiga asos bo'ladi. Kimdir og'zaki nutqda o'zini namoyon qila olsa, kim uchundir yozma nutq lisoniy shaxs sifatida namoyon bo'lishida muhim omil sifatida xizmat qiladi [4;86]. Biror bir millatning stereotiplari haqida xalq og'zaki ijodi, milliy adabiyot namunalari asosida tasavvur paydo qilish mumkin. Yozuvchi lisoniy shaxsi elita shaxs sifatida badiiy nutqda namoyon bo'lar ekan, nafaqat muallifning olam haqidagi tasavvuri, balki dunyoning milliy manzarasi, milliy konseptual sohasi ham ifodalanadi [7;10]

Rus tilshunosligida lisoniy shaxs haqidagi tadqiqotlarni tahlil qilar ekan, V.I.Karasik ularni ikki yo'nalishga ajratadi: birinchi yo'nalishdagi ishlarda atoqli

yo'zuvchilar, ijodkorlar, taniqli shaxslar lisoniy shaxs sifatida tadqiq qilingan bo'lsa, ikkinchi yo'nalishda oddiy sheva egalari tili ham tahlilga tortilgan. Ikkinchi yo'nalishdagi ishlar lisoniy shaxsning u yoki bu modelini qurish uchun manba bo'lgan bilim sohasi bilan bog'liq tarzda baholanadi. Har qanday turdagi lisoniy shaxs kommunikativ xatti-harakatlar orqali namoyon bo'lishini hisobga olib, tadqiqotchi bunday tahlillarni amalga oshirish tilshunoslikning zimmasida ekanligini ta'kidlaydi [4;86].

Tilshunoslikda lingvomadaniy tip masalasiga yondashuvlar turlicha bo'lib, V.I.Karasik lingvomadaniy tiplarini belgilashda yorqinlik va baholash belgisini asos sifatida oladi hamda quyidagicha tasnif qiladi: 1) yorqin lingvomadaniy tip (namunali shaxs). 2) unchalik yorqin bo'lmagan lingvomadaniy tip, 3) ijobiy lingvomadaniy tip, 4) salbiy lingvomadaniy tip [4;88].

Har bir millatning boshqa millat vakillaridan ajratib turuvchi lingvomadaniy tiplari mavjud bo'lib, I.V. Karasik Britaniya mustamlakachi zobiti lingvokulturologik tipini o'rganishda badiiy asarlar, badiiy filmlar material bo'lib xizmat qilishni, bunday "lingvomadaniy tiplarni o'rganish lingvokulturologiyaning rivojlanish yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning nazariy ahamiyati milliy-madaniy dunyoqarashning o'ziga xos xususiyatlarini tashkil etuvchi madaniy ahamiyatga ega ma'nolarni tushuntirishdadir", – deb ta'kidlaydi [4;89].

Dunyoning milliy lisoniy manzarasi lisoniy shaxs lingvistik ongining tarkibiy qismi sifatida baholanadi. Rus va mo'g'ul tillarida so'zlashuvchi lisoniy shaxslarning olam haqidagi tasavvurlarini qiyosiy aspektda o'rgangan tadqiqotchilar rus va mo'g'ul tillarida so'zlashuvchi oddiy til egalarining uy hayvonlarining nomini bildiruvchi so'zlarni talaffuz qilganda paydo bo'ladigan assotsatsiyalar, bu so'zlarning ma'nolarini talqin qilishda qanday o'xshashlik va farqlar borligi masalasiga e'tibor qaratadilar. Bunda asos sifatida milliy tilda dunyo manzarasining aks etishidagi o'ziga xoslikka urg'u beradilar hamda milliy tilni lingvomentallik sifatida oladilar [9;80].

Tabiiyki, ona tilini o'zlashtirish jarayonida shaxs olam haqidagi tasavvurlarni til vositasida shakllantiradi. "Ona tilini o'zlashtirish jarayonida til egasi lisoniy shaxs sifatida shakllanar ekan, so'zsiz xalqning mental-til sistemasiga bog'lanadi" [6;44]

Lisoniy shaxsning olamni anglashi, uning olam haqidagi tasavvurlari kommunikativ tajribasiga bog'liq bo'lib, u o'zgaruvchan va ko'p variantli bo'lishi mumkin. Biroq har qanday tajriba "shaxs mansub bo'lgan milliy hamjamiyat doirasida amalga oshiriladi hamda bu o'zgaruvchanlik, bir tomondan, ushbu jamoa doirasida chegaralanishi, ikkinchi tomondan, ular tomonidan belgilanishi kerak" [9;81].

Badiiy matnda lisoniy shaxs kommunikativ tajribaga ega, muayyan milliy madaniyat tashuvchisi – shaxs lingvistik ongining modelini aks ettiradi. Boshqird yozuvchisi Y.Xammatov lisoniy shaxsini tadqiq qilgan A.Ishegulova "Katta miqyosdagi voqealarni tasvirlashda yozuvchi tasvirlanayotgan davr ruhiga kirib borishi, balki tegishli davr holatini to'liqroq yetkazishi talab etiladi. Boshqirdlarning o'ziga xos turmush tarzini tushunishda Yanibay Xammatov ijodida etnografik va kasbiy lug'at muhim o'rin tutadi" [2;10], deya ta'kidlaydi.

Lingvokulturologiya nuqtayi nazaridan shaxs tiplarini ajratishda tegishli madaniyat vakillarining xatti-harakatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatgan shaxs turlarini tanlashni o'z ichiga oladi. Tabiiyki, lisoniy shaxsning lingvomadaniy xususiyatlari ular mansub bo'lgan madaniyatning tilga bevosita ta'siri nuqtayi nazaridan belgilanadi. Bunda shu til egasi mansub bo'lgan madaniyatning ta'siri u qo'llagan til birliklarida ko'zga tashlanishi, yaqqol ko'rinib turishi lozim bo'ladi.

Yozuvchi personaj lisoniy shaxsini voqelantirishda uning madaniyat, an'analar, asrlar davomida shakllangan qadriyatlarga qay darajada amal qilganini ham e'tibordan chetda qoldirmaydi. Quyidagi parchada o'zbek onasi lisoniy shaxsida o'zbek milliy-madaniyatiga xos qadriyatlar, urf-odatlar, irim-sirimlarni bildiruvchi birliklar aks etgan bo'lib, buni lingvokulturologik tip sifatida baholash mumkin: *Mehmon kelsa, darrov yangi to'shaklardan opkelib solasan, fотиha qilingach, dasturxon yozasan. Dasturxonni teskari yozib bo'lmaydi, xafa bo'ladi, yuzimni teskari qildi deb. Kelgan*

kishi sanog'iga qarab to'rtta, oltita yoki sakkizta non, qand-qurs, meva-turshak qo'yasan. Nonni toq qo'yib bo'lmaydi. Nonni teskari qo'ysang, u ham dasturxonga o'xshab xafa bo'ladi (Isajon Sulton. "Onaizorim"). Keltirilgan parchada o'zbeklarga xos milliylini ifodalashda *to'shak, dasturxon, non, qand-qurs, meva-turshak* kabi leksik birliklardan foydalanilgan.

Badiiy matnda lisoniy shaxs lingvomadaniy xususiyatlarining aks etishi haqida gap ketganda stereotip tushunchasiga ham to'xtalish lozim. "Stereotip muayyan guruh va jamoaning soddalashgan, sxemalashgan, emotsional bo'yoqdor va favqulodda barqaror bo'lgan obrazli, turli madaniyat vakillarining tili va tafakkurining o'ziga xosligidir" [8;167]. Stereotiplar muayyan xalqning milliy o'ziga xosligi, xarakteri, xulq-atvori, xatti-harakatlari va boshqa millat vakillaridan ajratib turuvchi jihatlari haqida obyektiv ma'lumot beradi. "Madaniyatlararo muloqotda o'zbeklar mehmondo'stligi, ruslar tavakkalchiligi, qozoqlar qaysarligi, turklar hissiyotlilik, xitoyliklar sertakallufli, yaponlar xushmuomalaligi, estonlar sustkashligi, italyanlar qiziqqonligi, inglizlar sovuqqonligi, nemislar tartibga aniq rioya qilishi bilan butun xalq haqidagi stereotip tasavvurlarni yuzaga chiqargan" [8;170]. Quyidagi matnda o'zbeklarga xos mehmondo'stlik stereotipining ifodalanishini ko'rishimiz mumkin: *Masalan, kechagiga o'xshab sirayam to'rga chiqib ketmaysan, qiz bolasan-ku, axir? Hamma o'tirganida sen osh-ovqat opkelasan. Keyin, ikki oyog'ingni chapga bukib, odob bilan o'tirasan, kim choy ichkisi kelsa, piyolaga yarim qilib quyasan, barmog'ingni uchi bilan tutib, nazokat bilan uzatasan. Agar kimdir choyni oxirigacha ichmasdan qaytib uzatsa, bildirmasdan to'kasan, choy qoldig'i ustiga yana choy quymaysan. Choy damlashniyam o'z usullari bor, choynak ichi oppoq bo'lishi kerak, qaynoq suv bilan chayib tashlab, keyin quruq choy solasan. Albatta, dam yedirasan. Dasturxonda fotihadan oldin o'tkir narsa turmasin* (Isajon Sulton. "Onaizorim"). Keltirilgan matnda lisoniy shaxs voqelikni bayon etishda tavsifiy ifodadan foydalangan. Natijada, lisoniy shaxs nafaol, faqat voqelikni bayon etuvchi shaxs

sifatida namoyon bo'lgan. Ifodaning bunday bayoni esa asar tilining bir muncha zerikarli, bir xil ohangda bo'lishiga olib kelgan.

Quyidagi matnda o'zbeklarning diniy qarashlari, oxirat, dunyo bilan bog'liq tasavvurlari o'z aksini topgan. *O'tkir narsa duoni kesadi deganlari yolg'on, aslida tig'iga dam berilgani yoki go'sht kesilgani uchun olib qo'y deyiladi. Hamma duo qilgach, turib kosa-tovoqlarni yig'ishtirasan, keyin dasturxonni "Savobini dunyodan o'tganlarga bag'ishladim" deb qoqasan. Dasturxon odamlar oyoq osti qilmaydigan joyga qoqiladi, uvoqlari qurt-u qushlarning rizqi bo'ladi, qurt-u qush yesa ro'zg'orga baraka kiradi...* (Isajon Sulton. "Onaizorim"). Keltirilgan matnda so'zlovchi o'zbek millatiga mansub lisoniy shaxs ekanligini *duo, kosa-tovoq, dasturxon, savob, uvoq, rizq-ro'z* kabi leksik birliklardan, uning katta yoshli ekanligini nasihat ohangining mavjudligidan, voqelikka berilgan ta'rif va izohdan anglash mumkin.

O'zbeklarga mehmondo'stlik xislati shu qadar singib ketganki, unga amal qilmaslik, mehmondo'stlikni qabul qilmaslik mensimaslik, kamsitish, kibrlanish tarzida ham qabul qilinadi. Yozuvchi Sh.Xolmirzayev "O'zbek xarakteri" hikoyasida o'zbeklarga xos mehmondo'stlik lingvomadaniy tipining yorqin lisoniy shaxsini mahorat bilan yoritib bergan. *Bechora o'zbekni bilasiz-ku: o'zi yemasdan mehmonga tutadi...Kambag'alligini yashiradi. Qiziq-a? Holbuki kambag'al odam o'z holatiga ko'nikkan bo'ladi. Yashirmaydi. Biznikilar negadir... Xuddi juda boy edi-yu, birdan kambag'al bo'lib qolganday: shuning uchun o'kinch bilan buni yashirishga intilayotganday tuyuladi menga... Balki boshqa — bizning aqlimiz etmaydigan sabablar bordir?*

Hikoya qahramoni kursdoshlari Botir cho'ponning mehmondo'stligini suiiste'mol qilayotganidan o'zini aybdordek his qiladi. Qahramon nutqidan uning o'zgalarga achinish, xayrixohlik qilish kabi milliy xarakter qirralari namoyon bo'ladi. *Botir cho'pon iljayib, quvonib dasturxon yozdi. Qo'sh-qo'sh yopgan non qo'ydi. Bir taqsimcha oq qandni sohib tashladi. Keyin ikki hovuch jiyya bilan mayiz ham sochdi.*

Keyin kattakon xum choynakka ko'k choy damladi. Ikki tovoq palov hash-pash deguncha yo'q bo'ldi. Keyin bosib-bosib choy icha boshlashdi.

Ushbu hikoya qahramoni Ergash vijdonli, o'zgalar holiga befarq bo'lmagan obraz bo'lib, uning o'zbek millatiga mansub lisoniy shaxsining voqelanishida lakunalarining ham o'рни bor. *Men... qanday o'tirganimni bilmas edim. Kasallikdan tuzalmaganim, injiqlik ham sababdir... Lekin bir burda non eyishga istihola qilardim.* Keltirilgan matndagi *istihola* so'zi lakuna bo'lib, boshqa millat vakillari uchun tushunarli birlik emas. Yozuchi ushbu so'zdan qahramon xarakterini ko'rsatishda foydalangan. Qahramonning ayni shu xatti-harakati o'zga millat vakillari uchungina emas, millatdoshi uchun ham tushunarsiz bo'lib, subyektiv baho munosabati ifodalashda qo'l kelgan.

Ayol meni kuzatib turgan ekan.

— *Shu ukamiz hech narsa tatimadi-da, — deb qoldi. — Yo bizni pisand qilmayaptilarmi?*

Yozuvchi Ergash lisoniy shaxsida o'zbeklarga xos o'zgalar dardiga achinish, kuyinish, tortinchoqlik, xayrixohlik kabi xislatlarni mahorat bilan namoyon qila olgan. Garchi o'zbeklarga har doim ham kimnidir yaxshi ko'rishini ochiq aytish xos bo'lmasa-da, hikoya qahramoni nutqida hikoya so'ngida cho'pon va uning xotiniga nisbatan munosabati so'z vositasida ifodalangan.

— *Botir aka, opa... men sizlarni juda yaxshi ko'raman, — dedim. — Xafa bo'lmangizlar.*

— *Yo'q, siz bizni yaxshi ko'rmaysiz, — dedi xotini. — Boshdan yomon ko'rib edingiz.*

— *Rost, uka. Pisand qilmadingiz bizni, — dedi shunda cho'pon ham. — Anavi yigitlar boshqacha...*

— *Axir men sizlarni juda-juda hurmat qilaman.*

— *Bekor gap, — dedi ayol.*

— *Ha, — dedi eri.* Keltirilgan matnda lisoniy shaxsning yigit kishi ekanligi, qipchoq shevasi vakili ekanligiga ishora qiluvchi birliklar ham mavjud. Ammo uning aynan

o'zbek millatiga mansub lisoniy shaxs ekanligi hikoya so'ngidagi nutqida ham yaqqol namoyon bo'ladi. *Ishonasizmi, avtobusga o'tirganimdan keyin sovuq oynadan laylakqorga qarab yig'lar edim: ana shu o'zbeklarning bag'rikengligi uchun, ne-ne qiyinchiliklarga, faqirlikka qaramay, fe'li tor bo'lmagan, ajib-afsonaviy mehmondo'stligi instinkt kabi mavjud qolgani uchun... ichimda, ich-ichimdan quvonib yig'lardim* (Sh.Xolmirzayev "O'zbek xarakteri")

Mehmondo'stlik o'zbeklarga xos stereotip sifatida baholansa-da, bu har doim ham ijobiylik kasb etmasligi mumkin. Mehmondo'stlik me'yoridan oshsa yoki mezbon o'zini qiynasa, bu holat o'zgalar nazarida achinish hissini (Sh.Xolmirzayev hikoyasidagi Ergash lisoniy shaxsida), bemavrid yoki kutilmagan mehmondo'stlik kulgi, mezbon shaxsini kamsitish, uni ahmoqlikda ayblash uchun asos bo'ladi. *Olti oydan keyin uning jazo muddati bitdi. Bitgan kuni u kechki poyezdga bilek olib, ishxonamga keldi.*

— *Hamma jo'rangni chaqir!*

— *Ha, yana biror hunaring qolganmidi?*

— *Bi-ir, registronda o'tiraylik! Ketar jafosiga!*

Ishdan ertaroq chiqib, to'rt-besht ulfat «Zarafshon» restoraniga bordik. Ramazon hamma narsani taxt qilib, uzun stolning to'rida tirjayib o'tirgan ekan.

— *Bor jo'rang shumi? E, bechora! Ziqnaligingga boribsan-da. Qo'rqma, karmon katta, atab qo'yganini berdi! O'sha kech restoranda rosa yayradik* (E.A'zam)

Til va madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog'liq tushunchalar bo'lib, jamiyatdagi o'zgarishlar natijasida o'zgarib turadi. Bu o'zgarishlar diskursda lisoniy shaxsda o'z ifodasini topadi. Lisoniy shaxs nutqida madaniy birliklarning o'zgarishiga turli omillar, hududiy mansublikning o'zgarishi, gender xoslik, yosh omillari sabab bo'lishi mumkin. Lisoniy shaxs nutqida qo'llaniladigan leksik birliklarning qo'llanilishida hududiy jihatdan mansublikning o'zgarishi, ijtimoiy mavqeyining ta'sirini quyidagi matnda ko'rishimiz mumkin.

La'nati Ramazon! O'zing tushgan chohga meni ham tortmoqchi bo'libsana-da? Nomard, chayqovchi! Matnda qo'llanilgan *choh* so'zi lingvokulturologik jihatdan ahamiyatli. Yozuvchi xalq maqolining mazmunini o'zgargan shaklda keltirgan bo'lsa-da, o'zbek millatiga mansub o'quvchi uning nimaga ishora qilayotganini anglashi oson. *La'nati, nomard, chayqovchi* kabi subyektiv baho ifodalovchi birliklar esa so'zlovchining voqelikka munosabatini aks ettirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan.

O'zbek tilida *og'ayni* yaqin munosabatni ifodalovchi birlik bo'lib, hamfikir, qadrdon, yaqin kishilarga nisbatan ishlatiladi.

—*Og'ayningiz avval ham chayqovchilik bilan shug'ullanarmidi?*

Shunda og'zimdan chiqqan gap uchun o'zimni hech qachon kechirmasam kerak:
— *Shug'ullangan bo'lsa bordir, men qayoqdan bilay? U og'aynim emas, shunchaki hamqishloq, hamshaharmiz.* (E.A'zam. "Anoyining jaydari olmasi").

Keltirilgan matndagi *og'ayni, hamqishloq, hamshahar* so'zlari milliylikni ifodalovchi tushunchalarni nomlaydi. Hikoya qahramoni bu o'rinda o'zini begona, shunchaki tanish sifatida tutishi o'zini himoya qilishga urinayotgan, mas'uliyatdan qochayotgan lisoniy shaxs sifatida gavydalanishida xizmat qilgan. Hikoyada *jo'ra, ulfat, og'ayni* so'zlari ma'nodosh bo'lib, milliylikni ifodalashda *ulfat* so'zining imkoniyati ko'proq. Bu leksema mavsumiy yoki doimiy ravishda uyushtiriladigan ziyofatlarda qatnashuvchi shaxs ma'nosini ham ifodalaydi. Ulfatchilik esa o'zbeklarning qish kunlarida vaqtni xursandchilik bilan o'tkazish maqsadida tashkillashtirilgan yig'ini sifatida milliylik kasb etadi.

Lingvokulturologik tadqiqotlarda umumiy yo'nalish "inson" ("milliy shaxs"), "til" (va tafakkur), "madaniyat" (moddiy va ma'naviy) kabi tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarning dinamik o'zgarishini nazarda tutadi [1;7] Quyidagi matnda o'zbeklarga xos bo'lgan mardlik – berilgan va'daga vafo qilish, berilgan so'zning ustidan chiqish kabi milliy qadriyatlar ifodasini topgan. — *Mana — ishonchingga*

mukofot!... Sen ham qochgin edi, “Bilmayman, meniki emas”, deb turib olgin edi, kallavaram!

— *Bunday qilsam, uni tutar edi-da? So‘z bergan edim, nomardlik bo‘lardi... (E. A‘zam).* Lingvokulturologiyada lisoniy shaxs qo‘llanilgan til birliklarining milliy-madaniy xoslikni qay darajada aks ettirishi nuqtayi nazaridan tadqiq qilinadi. *U kechqurun bir to‘rxalta sara olma ko‘tarib uyimizga keldi.*

— *Yaxshimi, yomonmi, shoir noming bor, ko‘chada olma ko‘tarib yursang obro‘ying buziladi, dedim...*

“Obro‘ying buziladi”, “to‘kiladi emas, “buziladi”! Ramazonning gapi, Ramazongina shunday deyishi mumkin! (E. A‘zam). Bu o‘rinda obro‘ leksemasi milliy mansublikni ifodalash uchun qo‘llanilgan. Qishloqda tug‘ilgan, shaharda o‘qib, yaxshi mavqega ega bo‘lgan kishilarga nisbatan doim hurmat-ehtirom ko‘rsatilgan. Ramazon do‘stini bozorda sotqin, begona deb atasa-da, uyiga sara olmalarni keltiradi va bozorda bermaganligining sababini uning obro‘si bilan bog‘laydi. Bu esa do‘stiga sadoqatli, ko‘nglida kiri yo‘q, gina saqlamaydigan o‘zbek lingvokulturologik tipni yaratishda xizmat qilgan.

XULOSA

Badiiy adabiyotda lisoniy shaxs ijodkorning ijod mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi. Milliy adabiyotni dunyoga tanitishda ijodkorning milliy xarakterni yaratishi qanchalik muhim bo‘lsa, lisoniy shaxsning voqelanishida tilning ifoda imkoniyatlaridan foydalana olishi shu darajada muhim. Lisoniy shaxs lingvomadaniy aspektda tadqiq qilinganda lisoniy shaxs nutqida qo‘llanilgan birliklar – iboralar, maqollar, o‘xshatishlar, pretsedent birliklar, allyuziv nomlar, lakunalar tahliliga e‘tibor qaratish zarur. Chunki bu birliklar milliylik aks ettirish imkoniyatining yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Adabiyotlar:

1. Василюк И.П. Лингвокультурологическое исследование национальной (русской) языковой личности (на материале афористики): Автореф. дисс. канд. филол. наук. – М., 2004. – 24 с.
2. Ишегулова А. М. Языковая личность писателя Яныбая Хамматова (на материале художественных текстов): Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Уфа. 2016. – 23с.
3. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.
4. Карасик В.И. Лингвокультурный типаж / Язык. Текст. Дискурс. Научный альманах. 5-выпуск. – Ставрополь-Пятигорск. 2007. – С.86-89.
5. Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Издательство ЛКИ, 2010. – 264 с.
6. Морковкин В.В. Язык как проводник и носитель знания / В.В. Морковкин, А.В. Морковкина // Русский язык за рубежом. 1997. № 1–2. С. 44–53.
7. Складорова О.С. Лингвокогнитивный и лингвокультурный аспекты репрезентации элитарной языковой личности писателя в художественном дискурсе: Автореф. дисс...канд. фил. наук. – Майкоп, 2021. – 20 с.
8. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019. – 246 b.
9. Шкуропацкая М.Г., Даваа Ундарма. Национальная языковая картина мира как компонент языкового сознания русской и монгольской языковой личности (сопоставительный аспект) // Вестник Томского государственного университета. Филология. 2015. №1(39). – С. 80-93.

O‘ZBEK VA JAHON DRAMATURGIYASIDAGI NAZARIY MASALALARNING QIYOSIY TADQIQI

Ahmedova V.

I.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri (PhD),